SUG‘ORILADIGAN OCH TUSLI BO‘Z TUPROQLARNING EKOLOGIK-MELIORATIV HOLATINI YAXSHILASH VA UNUMDORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI

[a]O‘raqov Quvondiq Musulmon o‘g‘li.
[a]Farg‘ona davlat universiteti 3-kurs doktoranti (PhD)

Annotatsiya: *Ushbu tezisda sug‘oriladigan och tusli bo‘z tuproqlarning bugungi kundagi ekologik-meliorativ holati, ularning unumdorligi pasayishiga sabab bo‘layotgan omillar hamda tuproq unumdorligini qayta tiklash va oshirishga qaratilgan samarali agrotexnik, meliorativ va fitomeliorativ tadbirlar majmuasi yoritilgan. Qashqadaryo viloyatida tarqalgan och tusli bo‘z tuproqlar unumdorligi kamayib borayotganligi olingan tuproq namunalari labaratoriyada o‘rganildi. rganBunga asosiy sabablardan biri tuproqdan olingan xosil xisobida tuproqqa organik o‘g‘it kiritilmayotganligi ko‘plab xududlarda aniqlandi.Bu muammoga kerakli yechim qilib oldi olinmasa tuproqlarimiz degradatsiyaga uchrab foydalanishga yaroqsiz xolatga kelib qoladi.*

Kalit so‘zlar: *Afrika laqqa balig‘i, genotip, epigenetika, genlar ekspressiyasi, oqar suv havzasi, granulalangan yem, akvakultura, iqtisodiy samaradorlik.*

KIRISH

O‘zbekistonning qurg‘oqchil mintaqalarida, jumladan, daryo qayirlari va tog‘ oldi tekisliklarida (masalan, Qashqadaryo vohasining Qarshi cho‘li hududlarida) sug‘oriladigan och tusli bo‘z tuproqlar keng tarqalgan. Bu tuproqlar o‘zining tabiatiga ko‘ra gumus miqdorining kamligi (0,8–1,2%), mexanik tarkibining yengilligi va dehqonchilik ta’sirida tez zichlashuvchanligi bilan ajralib turadi. Kuchli antropogen yuklama, noto‘g‘ri sug‘orish va mineral o‘g‘itlardan bir tomonlama foydalanish oqibatida ushbu tuproqlarning ekologik-meliorativ holati yomonlashib, agrofizikaviy xossalari yomonlashib tuproq strukturasi va kovakligi buzilmoqda.

Muammoning dolzarbligi: Och tusli bo‘z tuproqlarda kuzatilayotgan asosiy ekologik-meliorativ muammolar quyidagilardan iborat: Gumus inqirozi: Tuproq tarkibidagi organik moddalarning suvda erib parchalanib tez minerallashuvi va ularning o‘rnini…qoplash…choralarining yetarsizligi muammoning asosiy sabablaridir. Zichlashish va strukturasizlanish: Og‘ir texnikalar ta’sirida tuproqning haydov osti qatlamida o‘tkazuvchanlikni cheklovchi qattiq qatlam (loysimon(fizik loyning ortishi tuproqning zichlashishiga va plita hosil bo‘lishi. Ikkilamchi sho‘rlanish va eroziya: Sizot suvlari sathining ko‘tarilishi hamda noto‘g‘ri sug‘orish natijasida tuproqning yuqori qatlamida tuzlar to‘planishi va irrigatsiya eroziyasi. mintaqada sug`orish natijasida qiyalikning yuqori ekanligi Unumdorlikni oshirish va meliorativ holatni yaxshilash yo‘llari Och tusli bo‘z tuproqlarning ekologik barqarorligini ta’minlash uchun quyidagi kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish ilmiy va amaliy jihatdan yuqori samara beradi:

1. Organo-mineral o‘g‘itlashni o`z vaqtida qo`llash va almashlab ekish tizimi tuproqdagi mikrobiologik faollikni oshirish va gumus balansini ijobiy tomonga o‘zgartirish uchun har yili gektariga kamida 20–30 tonna mahalliy o‘g‘it (go‘ng, kompost) solish zarur. Shuningdek, almashlab ekish tizimiga siderat ekinlarni (raps,

xantal, ko‘k no‘xat) kiritish va ularni ko‘k jiyda sifatida tuproqqa haydash orqali tuproq tarkibini azot va organik moddalar bilan boyitish mumkin.

2. Tuproqqa minimal va chuqur yumshatib ishlov berishAn’anaviy agrotexnik tadbirlarni optimallashtirish, ya’ni tuproqni ag‘darmasdan chuqur yumshatish (40–50 sm) usullarini qo‘llash lozim. Bu haydov osti qatlamidagi zichlikni kamaytiradi, tuproqning suv o‘tkazuvchanligi va aeratsiyasini (havo almashinuvini) yaxshilaydi, ildiz tizimining tuproqqa chuqur kirib borishi rivojlanishiga sharoit yaratadi.

3. Suvni tejaydigan texnologiyalar va drenaj tizimlarini takomillashtirish Irrigatsiya eroziyasining oldini olish va sizot suvlari sathini nazorat qilish uchun tomchilatib, yomg‘irlatib va diskretli (pulsar) sug‘orish usullarini joriy etish zarur. Shu bilan birga, hududdagi kollektor-drenaj tarmoqlarini doimiy ravishda tozalash va ularning ishchi holatini saqlash ikkilamchi sho‘rlanish xavfini keskin kamaytiradi.

4.Fitomelioratsiya tadbirlari Sho‘rlanishga va qurg‘oqchilikka chidamli bo‘lgan dukkakli ekinlar (beda, esparset) hamda tuproq himoya ihota daraxtzorlarini (terak, jiyda, qayrag‘och) barpo etish orqali hududning mikroklimatini yaxshilash va shamol hamda suv eroziyasiga chek qo‘yish mumkin.

XULOSA

Sug‘oriladigan och tusli bo‘z tuproqlarning ekologik-meliorativ holatini yaxshilash faqatgina bir tomonlama yondashuv bilan cheklanib qolmasligi kerak. Agrotexnik tadbirlarni (chuqur yumshatish, organik o‘g‘itlash) zamonaviy suv tejamkor texnologiyalar va mukammal drenaj tizimi bilan birgalikda qo‘llash ushbu tuproqlarning unumdorligini barqaror saqlash hamda qishloq xo‘jaligi ekinlaridan yuqori hosil olishning bosh garovidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.Shermatova Qutbinisa Mahammadjon qizi., Qurbonov Jobirbek Jumaboy o'g'li., Ro‘zaliyeva Dildoraxon Salohiddin qizi., Xudoyberdiyeva Dilnura Zoxid qizi. Och tusli bo‘z tuproqlarga umumiy tasnifi. Journal of international scientific research. Volume , Issue. ISSN: 3030-3508 Farg‘ona – 2025. 1,January, B - 437-440. https://spaceknowladge.com

2.Doniyorov Toshmamat Omonovich. Qashqadaryoning sho‘rlangan tuproqlari meliorativ holatini yaxshilashda spersal kimyoviy meliorantini qo‘llash natijalari. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences SJIF 2023 = 6.131 / ASI ISSN:2181-1784 3(1), Jan., 2023 269-276 betlar.

Sh.M. Bobomurodov, A.J. Ismonov., Tuproqshunoslik -O‘zbekiston zamini 2/2022.[16-21].

3.Sug‘oriladigan och tusli bo‘z va o‘tloqi-allyuvial tuproqlarda almashinuvchi kaliy dinamikasi va paxta hosili., J.I. Ismayilov.,, Toshkent N.M.Ibragimov, q.x.f.d.,B.X. Tillabekov. Xorazm ma’mun akademiyasi axborotnomasi –10/1-2025 4.CHo‘l mintaqasi sug‘oriladigan o‘tloqi-allyuvial tuproqlarining umumiy fizik xossalarini gat asosida tahlil qilish O‘zbekiston zamini.,19-23betlar.

5.X.Q. Nomozov, Sh.M. Turdimetov,. Cho‘l mintaqasining yarim gidromorf va gidromorf tuproqlari,. O‘zbekxston tuproqlari va ularning evolutsiyasi kitob,. TOSHKENT – 2016,.70-84b,.

6.Toylakova Fotima Sayfulla qizi,. Diyorova Muhabbat Xurramovna,. Cho’l tuproqlarining fezik mexanik tarkibini o’rganish,. Agroinnovatsiya jurnali,.146-150b

7.Duysenbayeva Gulnaz., Qoraqalpog‘iston respublikasining sug‘oriladigan o‘tloqi allyuvial tuproqlari sharoitida yetishtirilgan qishloq xo‘jalik ekinlarining tuproq unumdorlik ko‘rsatkichlariga ta’siri., Yangi O‘zbekiston ilmiy tadqiqotlar jurnali., 1-jild, 13-son (yo‘itj)128-131betlar.,

8.O‘.T Toshbekov., I.A Abduraxmonov., B. Nishonov., Sug‘oriladigan bo‘z-o‘tloqi tuproqlarning meliorativ holati monitoring., Turli tuproq-iqlim sharoitida organik qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirishda innovatsion texnologiyalarni qo‘llashning dolzarbligi mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar.,228-231bet.